

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

JUMAYEVA MUXLISA BAXSHULLAYEVNA

**CHO‘L HUDUDLARI TOPONIMLARINING TABIIY GEOGRAFIK
XUSUSIYATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)**

11.00.01 – Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Jumayeva Muxlisa Baxshullayevna

Cho‘l hududlari toponimlarining tabiiy geografik xususiyatlari

(Navoiy viloyati misolida)..... 3

Жумаева Мухлиса Бахшуллаевна

Физико-географические особенности топонимов пустынных территорий

(на примере Навоийской области) 21

Jumaeva Mukhlisa Bakhshullaevna

Physico-geographical features of toponyms of desert regions

(on the example of Navoi region)..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

JUMAYEVA MUXLISA BAXSHULLAYEVNA

**CHO‘L HUDUDLARI TOPONIMLARINING TABIIY GEOGRAFIK
XUSUSIYATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)**

11.00.01 – Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Gr280 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abbasov Subxon Burxonovich
geografiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Usmonov Ma'ruf Rustamovich
geografiya fanlari doktori, dotsent

Bayqabilov Husniddin Mardanovich
geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 6-yanvar soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-16-36, faks: (+99866) 239-11-40; e-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 109 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-40

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 19-dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil 15-dekabr № 21-raqamli reyestr bayonnomasi).



L.Z.Ibragimov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi o'rinbosari,
g.f.d., professor

B.A.Meliyev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
g.f.f.d. PhD, dotsent

M.R.Usmanov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, g.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Butun dunyoda geografik joy nomlari, ularning tabiiy geografik, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy-tarixiy jihatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Geografik nomlar bo'yicha ekspertlar guruhi (UNGEGN) geografik nomlarda ijtimoiy-madaniy va landshaft elementlari aks etishini inobatga olib, 2021-2029-yillarga mo'ljallangan strategik rejasi hamda ish dasturini ishlab chiqqan. Unda "davlatlarning milliy geografik nomlarini standartlashtirish masalalari va ularning ustuvor harakatlarini aniqlash"¹ vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalar joy nomlarining tabiiy geografik jihatlarini tahlil qilish, geografik obyektlarni nomlash, joyning tabiiy geografik xususiyatlari asosida guruhlashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Jahonda joy nomlarining o'ziga xos jihatlarini, jumladan, ularning boy tarixi, turli o'lkalarning tabiiy geografik o'rni, tabiiy sharoiti, o'simlik va hayvonot olami, tabiiy resurslari, tog' va tekisliklari, suv resurslari to'g'risida ma'lumotlar beruvchi muhim manba sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada joy nomlarining tabiiy geografik xususiyatlarini aniqlash va guruhlashtirish, ularni muhofaza qilish maqsadida milliy toponimik kataloglarini yaratish va kompleks tabiiy-iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini ochib berishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda geografik joy nomlarining shakllanishida tabiiy geografik xususiyatlar asos bo'lgan joy nomlarini ilmiy tadqiq qilish, ularni to'g'ri yozilishi va talaffuzini qat'iylashtirish va muhofaza qilish ishlari bo'yicha ko'pgina chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabr "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmonida "geografik va boshqa toponimik obyektlarga qonun hujjatlariga muvofiq nom berilishi borasidagi faoliyatni monitoring qilish va muvofiqlashtirish" yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan². Bu borada, xususan, Navoiy viloyati joy nomlarini geografik jihatdan kompleks tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, 2019-yil 21-oktabr "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabr "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 984-son 2020-yil 29-yanvar "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 40-sonli qarorlari hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ UNGEGN- United Nations Group of Experts on Geographical Names
https://unstats.un.org/unsd/ungegn/documents/UNGEGN_Strategic_Plan_2021_V4.pdf

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” yo‘nalishining D. “Aholi turmush darajasi va farovonligini oshirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmalarini shakllantirishni ilmiy jihatdan o‘rganish va yangi bilimlarni egallash” bandi hamda VIII. “Yer haqidagi fanlar” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Nazariy-uslubiy jihatdan geografik joy nomlarini o‘rganilish asoslarini xorijiy olimlardan J.M.Tebes, G. R.Stewart, S.A.Nelson, M.J.Kraak, F. J. Ormeling, A.Mitchell, C.Miller, J.Cooper, P. Meygs, P.Longley, M.Goodchild, D.Maguire, P.Bolstad, P.Webb, P. A.Burrough, R. A. Donnell, R.Bunch, R.Lloyd, A.Goudie, M.Seely va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan geografik joy nomlarini tadqiq etishda V.P. Semenov Tyan-Shanskiy, V.A. Nikonov, E.M. Murzayev, Y.M.Pospelov, A.V. Superanskaya, A.X.Vostokov, A.N.Kuklin, A.I.Popov, V.A. Juchkevich, V.N. Toporov, N.V. Podolskaya, Y.A. Karpenko, A.K. Matveyev, Y.M. Chernyaxovskaya, M.N. Morozovalarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda toponimika sohasining turli yo‘nalishlarida H.Hasanov, S.Qorayev, N.Oxunov, P.G‘ulomov, T.Nafasov, N.M.Uluqov, Z.Do‘simov, Q.M.Hakimov, A.Nizomov, Y.I.Ahmadaliyev, M.T. Mirakmalov, P.S.Otaqulov Sh.I.Valiyeva, H.M.Bayqabilov singari olimlar o‘zining tadqiqot ishlarini olib borgan. Navoiy viloyati joy nomlarini o‘rganilishi bo‘yicha esa O‘.Oripov, G.Safarova, N.G‘aniyev, U.Turdimurodov tadqiqot ishlari e‘tiborga molik.

Ushbu tadqiqot ishlarda joy nomlari Navoiy viloyatining ayrim tumanlari miqyosida leksik-grammatik va etimologik tadqiq etilgan hamda toponimlarni nazariy masalalari kompleks o‘rganilgan va xulosalar chiqarilgan. Biroq geografik nomlarning tabiiy geografik xususiyatlari asosida guruhlashtirish va ularni muhofaza qilish maqsadida ularning milliy elektron bazasi yaratilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Navoiy davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbekistonning cho‘l hududlaridagi tabiiy-antropogen geotizimlarni o‘rganish muammolari hamda ularning geoekologik monitoringi” mavzusidagi (2021-2025) ilmiy tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Navoiy viloyati misolida cho‘l hududidagi joy nomlarining tabiiy geografik xususiyatlarini aniqlash va ularni hududiy tarqalish hamda nomlanish qonuniyatlarini asoslash, toponimlarni guruhlashtirish, standartlashtirish va tasniflash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Navoiy viloyati toponimlarini to‘plash hamda ulardagi cho‘llar nomlarini tabiiy geografik xususiyatlarini aniqlash;

Viloyat hududidagi geografik obyekt nomlarining tarixiy-etimologik kelib chiqishi va geografik joylashuvi asosida raqamli axborot tizimi yaratish (mobil ilova);

ArcGIS 10.8 dasturi yordamida Navoiy viloyatining 1:2200000 masshtabli gidronimlar hamda oronimlar xaritasini yaratish;

Navoiy viloyatining tabiiy geografik xususiyatga ega bo'lgan (oronim, gidronim, fitotoponim va zootoponim) toponimlarini muhofaza qilish, saqlash va kelgusi avlodga yetkazish uchun ilmiy asoslangan (GNIS) geografik nomlarning axborot tizimidan foydalanib, elektron platforma yaratish.

Tadqiqotning obyekti Navoiy viloyati cho'l hududlari joy nomlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Navoiy viloyati geografik joy nomlarini tabiiy geografik xususiyatlarini aniqlash, ularni guruhlashtirish, nomlanish qonuniyatlarini asoslash masalalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida geografik taqqoslash, tarixiy qiyoslash, kartografik, dala-ekspeditsiya, etimologik tahlil, statistik, anketa-so'rov, guruhlashtirish va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

cho'l hududlari joy nomlarining tabiiy geografik xususiyatlari aniqlanib, morfologik strukturasi, semantik va funksional vazifalari bo'yicha xususiyatlari tasniflangan;

geografik obyekt nomlarining geografik joylashuvi va etimologiyasi bo'yicha veb texnologiyalarga asoslangan Navoiy viloyati joy nomlarining elektron platformasi yaratilgan;

ArcGIS (10.8) dasturi yordamida Navoiy viloyatining 1:2200000 masshtabli gidronimlar hamda oronimlar xaritalari yaratilgan;

Navoiy viloyati geografik joy nomlarining foydalanuvchilar uchun interaktiv, tahliliy va o'quv imkoniyatlariga ega elektron platformasi algoritmi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

viloyat joy nomlari bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosalar va umumlashtirilgan fikrlar asosida toponimlarning tabiiy geografik jihatlari aniqlangan;

to'plangan geografik joy nomlarini xususiyatlari bo'yicha guruhlashtirilib viloyatda mavjud tabiiy geografik xususiyatga ega bo'lgan joy nomlarini nomlanish qonuniyatlari aniqlangan;

viloyat toponimlarini ArcGIS 10.8 dasturlari yordamida 1:2200000 masshtabli gidronimik hamda oronimik xaritasi yaratilgan;

Navoiy viloyati joy nomlarini raqamli tizimda aks ettiruvchi elektron platforma yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda Navoiy viloyati va uning tarkibidagi ma'muriy-hududiy birliklari mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tasdiqlangan joy nomlari ro'yxatlari, tarixiy va arxiv materiallari, Navoiy viloyatining barcha tumanlarida xususan, cho'l hududida olib borilgan dala tadqiqotlari va mahalliy informatorlar bilan suhbatlar, ilmiy

adabiyotlar, topografik xaritalar, geografik obyektlarning nomlari davlat reyestri ma'lumotlaridan foydalanilganligi, shuningdek, tadqiqot doirasida yaratilgan ilmiy-amaliy ishlanmalar, xaritalar, ilmiy taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati geografik nomlarni to'plash, ularning hududiy tarqalish va nomlanish qonuniyatlarini aniqlash, toponimik kartalar hamda Navoiy viloyati geografik joy nomlarini elektron bazasini yaratishda qo'llanilgan metodologik yondashuvlardan kelajakda boshqa hududlar toponimiyasini ilmiy-amaliy jihatdan o'rganishda foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan asosiy xulosa va tavsiyalardan Navoiy viloyati joy nomlarini muhofaza qilishning strategik dasturlarini takomillashtirishda, shuningdek, geografik nomlarning tabiiy geografik jihatidan tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari va uslublarini belgilashda, ta'lim tizimida o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Navoiy viloyati joy nomlarini tabiiy geografik xususiyatlarini tadqiq etish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Navoiy viloyati cho'l hududlarining toponimlarining tabiiy-geografik omillar bilan bog'liqligiga asoslangan tasniflari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi tizimi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi 2025 yil 16 maydagi 03/03–5268 son ma'lumotnomasi). Natijada, toponimlarning shakllanishi va ma'nolarida tabiiy muhitning ta'sirini aniq ko'rsatish, ularning tuzilishi, mazmuni va hududdagi funksional ahamiyati bo'yicha tizimli tasnif ishlab chiqish imkonini bergan;

viloyat hududidagi geografik obyekt nomlarining tarixiy-etimologik kelib chiqishi va geografik joylashuvi asosida yaratilgan, foydalanuvchilar uchun qulay veb-platformasi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi 2025 yil 16 maydagi 03/03–5268 son ma'lumotnomasi). Natijada, foydalanuvchilar uchun qulay, interaktiv veb-platforma ishlab chiqilgan, bu esa toponimlarning tarixiy-ma'noviy xususiyatlarini va joylashuvini oson va aniq o'rganish imkonini bergan;

ArcGIS dasturi vositasida Navoiy viloyatining toponimik xaritasidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi 2025 yil 16 maydagi 03/03–5268 son ma'lumotnomasi). Natijada, gidronimlar va oronimlarning geografik joylashuvi, ularning tabiiy-geografik xususiyatlari bilan bog'liqligi vizual va tahliliy jihatdan aniq aks ettirilgan, bu esa hududning toponimik xususiyatlarini tizimli o'rganish va tahlil qilish imkonini bergan;

toponimik ma'lumotlarni raqamli tizimda aks ettiruvchi elektron platformadan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi

kadastr agentligi amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi 2025 yil 16 maydagi 03/03–5268 son ma’lumotnomasi). Natijada, foydalanuvchilar uchun interaktiv, tahliliy va o‘quv imkoniyatlariga ega zamonaviy axborot resursi ishlab chiqilgan, bu toponimlarning tizimli tahlili va ulardan samarali foydalanish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy nufuzli jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning matn qismi 115 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Cho‘l hududlari joy nomlarini tadqiq etishning nazariy va metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida rivojlangan xorij mamlakatlarida va respublikamizda olib borilgan joy nomlari bilan bog‘liq tadqiqotlar, ularni o‘rganishning nazariy va amaliy masalalari bayon etilgan. Shuningdek, cho‘l hududlari joy nomlarini tasniflash va guruhlashtirish masalalari tabiiy geografik jihatdan o‘rganilgan.

Toponimlarga qiziqish qadimdan boshlangan va kishilar dastlab har qanday geografik obyektни oddiy terminlar bilan atashgan (*ko‘l, jar, tog‘, qir daryo* va hokazo). Keyinchalik esa bu terminlar atoqli otga, ya’ni toponimlarga aylangan. Toponim dastavval geografiyaning amaliy ehtiyojlari ta’sirida vujudga kelgan. Sayyohlar o‘zlari kashf etgan yerlarga nom berganlar hamda olis o‘lka va shaharlarning nomlarini kishilarga ma’lum qilganlar. Toponimlarni izohlash va tasniflashga bag‘ishlangan ilk yozma manbalar misr, yunon, xitoy, hind, fors, Vizantiya va Rim tarixchi hamda geograflari asarlari hisoblanadi.

XVIII-XIX asrlarda olimlar ilk bor obyektlarni o‘rganish, tavsiflash, kartaga tushirish jarayonida obyekt bilan birga obyekt nomlarini ham tadqiq qilishgan. Ya’ni joy nomlarining paydo bo‘lishi, qaysi tilga tegishli ekanligini aniqlash, shakllanishi, geografik nomning qanday ma’no anglatishi, ularni klassifikatsiyalash borasidagi toponimik tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Jumladan, A.Gumbold, A.Vamberi, N.Nadejdin, Vostokov A. X., P.Semyonov Tyan-Shanskiy, L.Berg, X. Gannet, A. Govri kabi olimlar toponimika rivojiga katta hissa qo'shgan. Toponimika fanining nazariy va amaliy asoslari yuzasidan ilmiy xulosalar bildirgan.

O'rta asrlarda mahalliy aholining ilmga bo'lgan rag'bat yanada oshishi tufayli Yusuf Xos Xojib, Maxmud Qoshg'ariy, Al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Bobur kabi ko'plab yirik qomusiy bilim sohiblari yetishib chiqdi. Ulardan ayrimlarining asarlari aynan toponimika fanining rivojlanishi uchun muhim manbadir.

O'zbekistonda toponimika fanining yirik vakillaridan biri Suyun Qorayevdir. Uni o'zbek toponimika fanining asoschisi tarzida tanitgan asarlari lingvistik, kartog'rafik, tarixiy va etnografik ma'lumotlar asosida yaratilgan. O'zbek olimlaridan toponimika faniga hissa qo'shgan olimlardan biri H.Hasanov hisoblanadi. Olim o'z tadqiqot ishlarida toponimlarni kelib chiqishi, to'g'ri yozilishi va talaffuzi, ma'nosi, qaysi tilga mansubligi, toponimik terminlarga qarab tadqiq qilish usullariga katta ahamiyat bergan. E.Murzayev ko'p yillik ilmiy faoliyati davomida xalq geografik terminlaridan geografik tasnifdagi ma'lumotlar olish usullarini ishlab chiqdi. Q. Hakimov, M.T.Mirakmalov, Y.I.Ahmadaliyev kabi olimlar toponimikaning nazariy-metodologik asoslari, geografik nomlar turlari, toponimik rayonlashtirish va toponimik qonuniyatlarning shakllanishi, geografik nomlarning yozilishi, talaffuzi va standartlashtirish muammolari borasida tadqiqot olib borgan.

Geografik obyektlarga nom qo'yishning qonuniyatlarini bilmasdan ish ko'rish kutilgan natijalar bermaydi. Har bir sohaning tekshirish obyekti mavjud bo'lib, uni tadqiq etishda turli metod va tamoyillar ishlab chiqiladi. Ishlab chiqilgan metodlar orqali soha yanada takomillashadi. Toponimika sohasi bo'yicha tadqiqotlar quyidagi tamoyillar asosida olib boriladi: a) Tarixiylik tamoyili; b) Toponimik pozitivlik tamoyili; v) Nisbiy negativlik tamoyili; g) O'zlashma nomlar (tarjima nomlar) tamoyili; d) Geografik nomlarning qatorlar tamoyili; e) Xalqona etimologiya yoki soxta etimologiya; j) Semantik muvofiqlik tamoyili; z) Toponimik vorislik tamoyili; i) Parallelizm tamoyili; k) "Asl shakl" tamoyili; l) Komplekslik tamoyili.

Toponimshunos olimlarning ta'kidlashicha, toponimning asl ma'nosini aniqlash uchun bitta metoddan foydalanish yaxshi samara bermasligi mumkin. Toponimik tadqiqotlarda geografik nomni hudud toponimiyasi bilan birga tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Umuman olganda, toponimist olimlarning sayi-harakatlari bilan toponimika fanining tadqiqot usullari shakllandi. Ammo, mavjud usullarning qaysi biri eng muhimligini aytish qiyin, chunki ularning har biri geografik nomga turlicha yondoshish imkonini beradi va toponimning mazmun va mohiyatini aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Aytishimiz mumkinki, toponimika landshaft yordamida tarix va xususiyatlar haqida so'zlaydi. Toponimlar yordamida tabiiy landshaft, o'simlik va hayvonot dunyosi tarqalish obyektlarini aniqlash mumkin. Hozirda mutaxassislar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlarida qo'llanilayotgan toponimik tadqiqot usullari quyidagilardan iborat: a)

Geografik usul; b) Kartografik usul; v) Tarixiy usul; g) Statistik usul; d) Etimologik, formant va strukturaviy-grammatik usul; e) Strukturaviy-grammatik usul; j) Paleogeografik usul; z) Qiyosiy usul; i) Geografik nomlar axborot tizimi usuli.

Toponimik tasniflash – joy nomlarini uning biron bir ko'rsatkichiga qarab sinflarga ajratish va ularni tizimlashtirish, demakdir. Toponimik tasniflar umumiy geografik xususiyatiga ko'ra guruhlangan turli geografik obyektlarni nomlaydi hamda toponimik tizimning asosini tashkil qiladi. Toponimik tizim bu hududiy xususiyatga ega bo'lib, mintaqaviy geografik voqelikni ifodalash uchun o'ziga xos lug'at tizimidir. Toponimik tasniflash va guruhlashtirish har qanday mamlakat yoki hududning joy nomlarini tartibga solishda muhim hisoblanadi. Ilmiy tasnifni yaratish masalasi juda murakkab vazifa hisoblanadi, chunki u yo'nalish, tamoyillar, tadqiqot maqsadlariga bog'liq bo'ladi.

Geografik nomlarni tasniflash masalalari E. Murzaev, H. Hasanov, S. Qoraev, P.G'ulomov kabi olimlarning ishlarida batafsil berilgan. Hozirda 5 ta mezon bo'yicha geografik nomlarni tasniflash orqali tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

1. Toponimlarni hajmiga ko'ra tasniflash;
2. Geografik nomlarni etimologik tahlilga ko'ra tasniflash;
3. Toponimlarning tarixiy tasnifi;
4. Toponimlarning lingvistik tasnifi;
5. Toponimlarning semantik tasnifi.

Toponimlarning semantik tasnifi geografik obyektlarning tabiiy xususiyatiga bog'liq hamda ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy holatlari bilan bog'liq nomlar kabi kichik turlarga ajratilib o'rganiladi.


Tabiiy geografik obyektlarning nomlariga gidronimlar, oronimlar, drimonimlar, insulonimlar va boshqalar kiradi. Gidronimlar barcha suv havzalarining nomlari (yunoncha "hidro" – suv, "nom" – nom) bo'lib, toponimikaning gidronimlarni o'rganuvchi bo'limiga gidronimika deyiladi. Quruqlikdagi suv havzalari va suv oqimlarining yig'indisi bo'lgan gidrografik to'ra okeanlar, dengizlar, daryolar, ko'llar, botqoqliklar va suv omborlarini o'z ichiga oladi. Oronimlar (yunoncha "oro"-tog', anomi-atoqli ot, yer yuzasi relyefi) relyef elementlarining nomlarini va uning shakllarini (tog'lar, burunlar, tepaliklar, qirlar, do'nglar, botiqlar) o'z ichiga oladi va oronimlarni o'rganuvchi toponimika bo'limi oronimika deb ataladi. Oronimlarning turlaridan biri speleonimlardir (g'orlar, chuqurliklar, ungurlar, quduqlar, shaxtalar va butun yer osti tizimlarining nomlari). Drimonimlar o'rmon maydonlarining nomlari bo'lib, toponimikaning drimonimlarni o'rganuvchi bo'limi drimonimika deb ataladi. Insulonimlar – orollar nomlarini birlashtirgan toponimlarning kichik sinfidir.

Toponimik tasniflar hozirgi vaqtda turli xil onomastik hodisalar va ularning turli parametrlari tufayli munozarali va ziddiyatli bo'lib qolmoqda. Biroq aynan tasniflash nomlarni tizimlashtiradi, mavjud materialning xilma-xilligini va shunga mos ravishda uni o'rganishga turli yondashuvlarni hisobga oladi. Mahalliy va xorijiy toponimistlar toponimlarni tizimlashtirishda hali ham yagona yondashuvga kelmaganlar, chunki bunda nafaqat til ma'lumotlarini, balki geografiyani ham

hisobga olish muhim hisoblanadi. A.V.Superanskaya, Sh.Qodirova, Z.Do‘simov, N.Oxunov, T.Enazarov kabi olim va tadqiqotchilarning joy nomlari lingvistik tasnifi; geograf va toponimshunos olimlar V.A.Juchkevich, H.Hasanov, P.G‘ulomov, M.T.Mirakmalov geografik joy nomlarining tasniflari toponimlarning geografik xususiyatlarini yoritishda xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning “**Tabiiy geografik xususiyatlariga ko‘ra cho‘l hududlari joy nomlarini guruhlash (Navoiy viloyati misolida)**” deb nomlangan ikkinchi bobida joyning tabiiy geografik xususiyatlariga, xususan suv obyekti bilan hamda joyning relyefi bilan bog‘liq toponimlar o‘rganilgan. Navoiy viloyati joy nomlarini klassifikatsiyalashda toponimist olimlar E.Murzayev, H.Hasanov, P.G‘ulomovlar tavsiya etgan tasnif mukammal ekanligini hisobga olgan holda, dastlab toponimlarni yirik guruhlarga ajratib va ushbu guruhlar tarkibida kichik turlarni aniqlab oldik. Tasniflash qoidalaridan kelib chiqib, Navoiy viloyati toponimlarini quyidagicha guruh va turlarga ajratib chiqdik.

- I. Joyning tabiiy geografik xususiyatlariga bog‘liq nomlar;
- II. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy xususiyatlar, holatlar bilan bog‘liq holda vujudga kelgan nomlar;
- III. Afsonaviy va g‘aroyib nomlar.




1-rasm. Joyning tabiiy geografik xususiyatlariga bog‘liq nomlar.

Har qanday suv obyektlarining nomlari gidronimlar deyiladi. Gidronimlarni boshqa turlardan ajralib turadigan jihati, suv obyektlari nomlarining qadimiyligi va turg‘unligi bilan ular uzoq yillardan buyon o‘zgarmay ilmiy adabiyotlarda qo‘llanilishi bilan xarakterlanadi. Hidrologik obyektlarni nomlashda pozitivlik, negativlik tamoyillariga ham asoslanadi. Hidrologik obyektlarga nom berishda

obyektning tabiiy geografik xususiyatini yoki nomlanish uchun asos berayotgan biror voqea-hodisani anglata olishga asoslanganlik qonuni pozitivlik (lotincha positivus – musbatli, ijobiy) tamoyili deyiladi. Hidroobyektlarni nomlashda, obyekt uchun tipik (xarakterli) bo‘lmagan belgi asosida nomlanish omili negativlik (lotincha negativus – salbiy, manfiy) tamoyili deyiladi.

Navoiy viloyatining asosiy suv manbai - Zarafshon daryosi. Zarafshondan Konimex kanali chiqarilgan. Viloyatni suv bilan ta'minlashda Quyimozor, To'dakul suv omborlarining ahamiyati ham katta. Navoiy viloyati O'zbekistonning eng katta viloyati – respublika maydonining deyarli 1/4 qismini egallaydi. Shunga ko'ra, viloyat toponimlar soni jihatidan ham respublikada oldingi o'rinda turadi. 1:200000 masshtabli topografik xarita materiallariga ko'ra, viloyat bo'yicha relyef shakllari nomlari - oronimlar bilan suv obyektlari nomlari - gidronimlar soni 4000 dan oshadi, bundan tashqari, aholi punktlari - shahar-shaharchalar, qishloq-ovullar soni qariyb 1500 ga etadi.



2-rasm. Navoiy viloyati joy nomlari tarkibida gidronimlar ulushi
(Rasm muallif tomonidan ishlab chiqildi)

Viloyatda gidrologik obyektlarni nomlash, obyektning joylashgan o'rni, relyefi bilan bog'liq bo'lib, viloyat toponimiyasida salmog'i nisbatan kam, chunki viloyatning shimoliy va g'arbiy qismlari cho'l hududidan iborat. Lekin hududda quduq nomlari ko'p uchraydi. Navoiy viloyatida 500 ga yaqin suv obyektlarining guruhlashtirildi va ushbu guruhlar tarkibidagi gidronimlar tasnifi quyida keltirildi.

Navoiy viloyati gidronimlarning toponimik tasnifi

Toponimik tasnifi	Gidronimlar
Obyekt joylashgan o'rniga bog'liq nomlar	O'ng qirg'oq, O'rtacho'l, Dash-Nagorn, Quyimozor, Joyindibuloq, Markaziy kollektor, Yuqori Buxoro
Obyektning barpo etish vaqti asosida yuzaga kelgan nomlar	Eski Karmana
Orogidronimlar	Ko'kboget, Qosburkit, Qumburkit, Tasqoq, Qumbog'ut, Jara, Jarliqop,
Suv obyektini turini ifodalaydigan nomlar	Shohrud, Shovot, Asovqoq, Jilg'iqoq, Siyozqoq, Sharquduq, Doriquduq, Jing'ildi,
Fitogidronimlar	Oqoltin, Chinor, Kamisti, Qamishli, Yantoqliquduq, Qamishlibuloq
Zoogidronimlar	Jilqishi, Qulonqoq, Bo'ritesken,
Obyektning hajmini, shaklini, tuzilishi ifodalaydigan nomlar	To'dako'l, Kichik qulon, Katta qulon, Uzunquduq, Murunquduq, Qorakatta, Kattazovur,
Obyektning son-sanog'ini ifodalaydigan nomlar	Beshrabot, To'rtquloq, Havza-5, Havza-4, Saksonboy, Oltiboy, Tortquduq,
Obyektning rangi, mazatami, haroratini ifodalaydigan nomlar	Qoramon, Qorabo'g'ot, Qizilqoq, Sho'rko'l, Qizilquduq, Zangor, Yomontaqir, Oqboget, Qorato'be, Qizilqoq, Qizilqum, Sho'rchaquduq, Sho'rquduq, Oqtosh, Sorbuloq, Sho'rbuloq, Qorabuloq, Saribuloq, Ashshibuloq, Qizilken, Sho'rko'l
Antropogidronimlar	Navoiy, Kundayberganqoq, Salamondarqoq, Malikobod, Isimboy, Parman, Asovboy, Shukirqoq, Berkimboy, Jumanazar, Qo'lbike, Mirzamo'min,
Etnogidronimlar	Do'rman, Chovli, Qarnab, Zormiton
Agionimik va nekronimik gidronimlar	Bobodo'g'i, Mozor, Qaraqata, Layliken, Duldul
Boshqa turga xos nomlar	Kasaba, Amu-Buxoro, Taqsimlovchi-2, Shofirkon tarmog'i, Konimex, Qo'rali, Jengeldi, Shengeldi, Zarafshon, Yoshlik

Oronimlar faqatgina tog'lar va tepaliklar emas, balki relyefning salbiy shakllari, ya'ni jarliklar, vodiylar, soyliklar, past tekisliklar, daralar, qumliklar va boshqa orografik obyektlar nomlaridir. Navoiy viloyatida mavjud oronimik obyektlar o'rganildi, va ularni obyekt turiga qarab tasniflandi. Eng ko'p ulushni do'nglik va urochishe nomlari, eng kami esa qir va botiq nomlarini tashkil qiladi (3-rasm).

Oronimlarning nomlanish xususiyatlariga ko'ra 2 guruhga bo'lish mumkin:

1. Tabiiy-geografik oronimlar;
2. Ijtimoiy-iqtisodiy oronimlar.

Tabiiy-geografik oronimlar ham, o'z navbatida, bir nechta kichik turlarga bo'linadi: obyektning rang, rang-tus belgisi bilan bog'liq oronimlar, obyektning


son-sanog‘i, miqdori, bilan bog‘liq oronimlar, obyektning hajm-xususiyati, tashqi ko‘rinishi va shakli asosida nomlangan oroobyekt nomlari, obyektning tuproq tarkibiga bog‘liq oronimlar, foydali qazilmalar bilan bog‘liq oronimlar, fitooronimlar, zooronimlar.

Ijtimoiy-iqtisodiy oronimlar bir nechta kichik turlarga bo‘linadi: antropooronimlar, agiooronimlar va nekrooronimlar, aholining kasb-hunariga nisbat berish asosida shakllangan oronimlar, aholi yoki alohida shaxslarning ijtimoiy mavqeyi, nasl-nasabiga nisbat berish asosida yuzaga kelgan oronimlar (2-jadval).

2-jadval

Navoiy viloyati oronimlarining toponimik tasnifi

Toponimik tasnif	Oronimlar
Tashqi ko‘rinishi va shakli asosida nomlangan oroobyekt nomlari	Do‘nglik- Jalpaqshi, Uzuntepa, Ushoqtepa, Do‘maloqto‘be, Uzuntov, Bashsho‘qi tog‘ - Darvoza, Tomditov, Jalqaptov, urochishe - Kichioy, Kattaoy
Obyektning tuproq tarkibiga bog‘liq oronimlar	Do‘nglik - Sho‘rpoda, Qizilkesak, Qum, Toshtoqqum, Ashshi, Ashshibuloq; qumlik – Yomonqum, jarlik-Sho‘rsoy, Qayroqsoy, tog‘ - Qayroqlitov, Tuztepa, urochishe - Oqshag‘il, Oqqum
Foydali qazilmalar bilan bog‘liq oronimlar	Tog‘- Oltintog‘, quruq o‘zan - Moylisoy
Fitooronimlar	Do‘nglik – Qamishti, Qo‘sterak, urochishe- Arpaxon, quruq o‘zan – Yantoqlisoy
Zooronimlar	Do‘nglik – Itjon, Tasbaxa, Qoradum, tog‘ – Qopolontepa, Qashqa, Jaman-Qasqirtov
Obyektning son-sanog‘i, miqdori, bilan bog‘liq oronimlar	Do‘nglik - Jalg‘izto‘be, Besto‘be, Jalg‘iza, Beshqoq, Qo‘shqoqtepa, Mingbuloq, Yuzquduq, Qo‘sterak, botiq – Mingbuloq, taqir – Qirquduq, tog‘ - Uchquduqtov, Uchtepa, urochishe - Qo‘shqarali, Xazargar
Obyektning rang, rang-tus belgisi bilan bog‘liq oronimlar	Do‘nglik - Oqburinoq, Qizilkesak, Qoraburinoq, Ko‘kto‘be, Qumlik - Qizilqum, Jarlik - Qoraqata, Oqsoy, Tog‘lar - Ko‘kpatas, Qorator, Qo‘ng‘irtepa, Saritov, Urochishe - Oqbel, Ko‘kqaboq, Oqsoy, Oqjar, Ko‘kdala, Qizilkese
Aholi yoki alohida shaxslarning ijtimoiy mavqeyi, nasl-nasabiga nisbat berish asosida yuzaga kelgan oronimlar	Do‘nglik – Xontepa
Antropooronimlar	Do‘nglik – Fozilbek, Izbosarto‘be, Aldayor, Raimqul, Reyimqul, Sovutboy, Suleymon, Cherembet, O‘rozboy, Qodir, tog‘ – Terikbobo, Mirzamarat, Sardor, To‘g‘ayjo‘rabek
Agiooronimlar va nekrooronimlar	Do‘nglik – Kampirjo‘l, Yesinaman, Narkaman, Zang‘arto‘be, tog‘ - Buyermana, Mayidqora, Qizdikmullasi
Aholining kasb-hunariga nisbat berish asosida shakllangan oronimlar	Do‘nglik – Qaroqchito‘be, Qaroqshi




3-rasm. Navoiy viloyati joy nomlari tarkibida oronimlar ulushi


Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Navoiy viloyati cho‘l hududlari joy nomlarini kartalashtirish va uning elektron platformasini yaratish**” deb nomlanib, unda viloyatning tabiiy geografik xususiyatiga bog‘liq toponimlarning oronimlar va gidronimlar xaritasi va elektron platforma yaratilgan.

Joy nomlari – har qanday mamlakatning madaniy, tarixiy va geografik merosi bo‘lib, ular turli davrlar, xalqlar va tillar ta’sirida shakllangan. Navoiy viloyati toponimlari bo‘yicha ilmiy izlanish olib borishda ushbu nomlarni tizimlashtirish, tahlil qilish va ularning tarixiy-lingvistik asoslarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda joy nomlarini elektron shaklda jamlash va ulardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratish uchun maxsus elektron baza tuzish zarurati tug‘iladi.

Joy nomlari geografik obyektlar bilan bog‘liq hisoblanadi va ularni oddiy matn yoki jadval shaklida saqlash yetarli emas. Shu sababali tadqiqotchi tomonidan tuzilgan 1:2200000 masshtabli Navoiy viloyati oronimlari va gidronimlari kartalari foydalanuvchiga hududdagi mavjud tabiiy geografik xususiyatga ega bo‘lgan joy nomlarini o‘rganish imkonini beradi.




4-rasm. Navoiy viloyati oronimlar kartasi



5-rasm. Navoiy viloyati gidronimlar kartasi

Internetda Navoiy viloyati toponimlari joylashgan o'rnini, kelib chiqishi, ma'nosi, ko'rinishi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish uchun sayt yaratishga harakat qildik. Platforma hammaga ko'rinarli bo'lishi, doimiy faol bo'lishi (24 soat ishchi holatda)ni ta'minlandi va domen sifatida "navoiytoponim.uz" nomini tanlandi, axborot platformasiga yo'naltirildi. Barcha ma'lumotlar jamlangandan keyin ularni umumiy tarzda axborot platformaning elektron bazasida joylashtirishimiz mumkin bo'ladi. Wordpress tizimi asosida barcha ma'lumotlarni, menyular, logotiplar, xaritalar joylashtirilib, aynan toponimlar haqidagi umumiy baza shakllantirildi.



6-rasm. Navoiy viloyati toponimlari elektron platformasi bosh sahifasi

Navoiy viloyati toponimlari bo'yicha ilmiy izlanish olib borishda joy nomlarini tizimlashtirish, tahlil qilish va ularning tarixiy-lingvistik asoslarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda joy nomlarini elektron shaklda jamlash va ulardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratish uchun maxsus joy nolarining yaratilgan elektron platformasi algoritmi takomillashtirildi. Unga ko'ra platformadan 3D formatdagi Navoiy viloyati gidronimlari va oronimlari onlayn xaritalari o'rin olgan. Platforma doimiy ishchi holatda va unda ma'lumotlar yngilanib, qo'shib boriladi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar hamda ularning tahlili quyidagi xulosalar, tavsiya va takliflarni ishlab chiqishga imkon beradi:

1. Navoiy viloyati joy nomlari o'ziga xos bo'lgan bir qancha tabiiy geografik xususiyatlariga ko'ra nomlangan. Geografik nomlarni shakllanishga tabiiy geografik komponentlar va jarayonlarning ta'sir etishi hamda o'zgarishi toponimik jihatdan asoslandi. Joy nomlarining tabiiy geografik xususiyatlar bilan bog'liqligi

toponimlarning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari haqida ma'lumot olish imkonini beradi;

2. Joy nomlarini toponimik tamoyillar asosidagi tasniflari umumiy geografik xususiyatiga ko'ra guruhlangan turli geografik obyektlarni nomlab, toponimik tizimning asosini tashkil qiladi. Toponimik tasniflash va guruhlashtirish har qanday hududning joy nomlarini tartibga solishda muhim hisoblanadi;

3. Joy nomlarini geografik jihatdan tadqiq qilishda hududiylik, geografik nomlarning denotatga ko'ra bo'linishi, semantik jihatlari e'tiborga olinadi. Tabiiy geografik jihatlarni aks ettiruvchi nomlarning toponimik denotatiga quyidagilar: *tog'*, *tepalik*, *tepa*, *jarlik*, *botiq*, *qir*, *buloq*, *chuqur*, *qirg'oq*, *daryo*, *ko'l*, *o'tloq*, *qumli*, *gilli*, *toshloq*, *sho'rxok* kiradi. Bular geografik obyektlarni nomlash va ularni qayta nomlash masalalarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi;

4. Navoiy viloyati joy nomlarining tabiiy geografik xususiyatlar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan nomlarga quyidagi tasniflar ajratildi. Bular, a) joyning geografik o'rniga bog'liq holda paydo bo'lgan nomlar; b) joyning o'ziga xos xususiyatiga bog'liq nomlar; v) joyning relyefiga bog'liq toponimlar; g) joyning iqlimi, meteorologik elementlariga bog'liq nomlar; d) suv bilan bog'liq nomlar – gidronimlar; e) o'simliklar, ularning turlari bilan bog'liq nomlar; yo) hayvonlar bilan bog'liq joy nomlari; f) foydali qazilmalar bilan bog'liq hosil bo'lgan toponimlar. Ushbu tasniflar, geografik nomlarni mazmuni va mohiyatini aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi;

5. Viloyat joy nomlarini davlat ekspertizasidan o'tkazish va qat'iylashtirishga xizmat qiladigan "Navoiy viloyati gidronimlar xaritasi", "Navoiy viloyati oronimlar xaritasi" yaratildi. Ushbu xaritalarda keltirilgan ma'lumotlar viloyatning gidrologik obyektlari va oronimlari haqida ma'lumot olish va joy nomlarining toponimik bazasini takomillashtirish imkonini beradi.

6. Navoiy viloyati gidronimlari va oronimlarining toponimik tahlili, joy nomlarini pozitivlik, nisbiy negativlik qonuniyatlari hududning gidrografiya va rgrafiya shakllanishi va tabiiy geografik terminlarning roli asoslangan. Ushbu natijalar geografik nomlaridan foydalanishni tartibga solish, qonun hujjatlariga muvofiq ilmiy asoslangan geografik nom yaratish hamda umumiste'molda bir xilda qo'llanilishini ta'minlash imkonini beradi.

7. Joy nomlari elektron bazasini vizualizatsiya qilish uchun **ArcGIS Pro** va **My Google Maps** platformalari integratsiya qilinishi mumkin. ArcGIS Pro **chuqur tahlil va statistika** uchun ishlatilsa, My Google Maps **interaktiv va qulay foydalanuvchi tajribasi** uchun mos keladi. Ushbu texnologiyalar yordamida Navoiy viloyatining toponimlarini ilmiy va geografik jihatdan mukammal tadqiq qilish imkoniyati yaratiladi.

8. Navoiy viloyati toponimlarini milliy qadriyat sifatida o'rganish, asrash, joy nomlardan foydalanishni standartlashtirish va qat'iylashtirish yuzasidan bajariladigan ishlar bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot ishida berilgan taklif va tavsiyalardan viloyat geografik obyektlarini nomlash va qayta nomlashda foydalanish maqsadga muvofiq.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ
ШАРОФА РАШИДОВА**

НАВОИЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЖУМАЕВА МУХЛИСА БАХШУЛЛАЕВНА

**ФИЗИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТОПОНИМОВ
ПУСТЫННЫХ ТЕРРИТОРИЙ (НА ПРИМЕРЕ НАВОИЙСКОЙ
ОБЛАСТИ)**

11.00.01 – Физическая география

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ГЕОГРАФИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд – 2026

Тема диссертационного исследования доктора философии (PhD) по географическим наукам зарегистрирована Высшей Аттестационной Комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером № В2023.4.PhD/Gr280.

Диссертация выполнена в Навоийском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.samdu.uz), а также информационно-образовательного портала «ZiyoNet» (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель: **Аббасов Субхон Бурхонович**
доктор географических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Усманов Маъруф Рустамович**
доктор географических наук, доцент
Байкабилов Хусниддин Марданович
доктор философии (PhD) по географическим наукам,
доцент

Ведущая организация: **Джизакский государственный педагогический университет**

Защита диссертации состоится 6 января 2026 года в 10:00 часов на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15, Самаркандского государственного университета, тел.: (+99895) 410-20-10), факс: (+99866) 239-11-40; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (зарегистрирована под № 109) адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом-15., Тел.: (+99866) 239-16-36, факс: (+99866) 239-11-40.

Автореферат диссертации разослан 19 декабря 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 21, 15 декабря 2025 года)



Л.З.Ибрагимов
Заместитель председателя Научного совета по присуждению ученых степеней, д.г.н., профессор

Б.А.Мелиев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по географическим наукам (PhD), доцент

М.Р.Усманов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.г.н. (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Во всем мире особое внимание уделяется географическим названиям, их природно-географическим, экономико-социальным и культурно-историческим аспектам. Учитывая социально-культурные и ландшафтные элементы, отраженные в географических названиях, Группа экспертов ООН по географическим названиям (ГЭГН ООН) разработала стратегический план и программу работы на 2021–2029 годы. В нем обозначены задачи по «выявлению проблем стандартизации национальных географических названий государств и первоочередным направлениям их решения». Эти задачи предполагают проведение исследований по анализу природно-географических аспектов топонимов, наименованию географических объектов и их группировке по природно-географическим признакам.

В мире топонимы имеют особое значение как важный источник информации об их уникальных особенностях, включая богатую историю, природно-географическое положение, природные условия, флору и фауну, природные ресурсы, горы и равнины, водные ресурсы различных стран. В этой связи особое значение придаётся выявлению и группировке природно-географических особенностей топонимов, созданию национальных топонимических каталогов для их охраны, раскрытию их комплексного природного, экономического и социального аспекта.

В нашей республике реализуется множество мер по научному изучению топонимов с учётом природно-географических особенностей в образовании географических названий, стандартизации их правильного написания и произношения, а также их охране. Указ Президента Республики Узбекистан от 21 октября 2019 года № УФ-5850 «О мерах по кардинальному повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного» определяет важные задачи по «контролю и координации деятельности по наименованию географических и других топонимических объектов в соответствии с законодательством». В этой связи особое значение приобретает комплексное географическое изучение топонимики Навоийской области.

Данная научно-исследовательская работа в определенной мере послужит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № ПФ-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», от 21 октября 2019 года № ПФ-5850 «О мерах по коренному повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного», а также Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан от 12 декабря 2019 года № 984 «Об утверждении Положения об Управлении по развитию государственного языка», от 29 января 2020 года № 40 «О мерах по организации деятельности Терминологической комиссии при Кабинете Министров Республики

Узбекистан» и ряде других нормативно-правовых актов, касающихся данной сферы.

